



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

15-
aprel
2023-yil
shanba

№3 (19)



Munira QODIROVA,
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
institutini ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha
prorektori

—Bugun yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar, ayniqsa, ilm-fan sohasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borishdagi jarayonda ayollarga bo'lgan alohida e'tibor natijasidir. Qisqa muddat ichida ikkita ilmiy daraja va ikkita ilmiy unvonga ega bo'ldim. Men bugungi konstitutsiyaviy islohotlar jarayoniga befarq emasman. Sababi, yosh o'qituvchilarga berilayotgan imkoniyat o'qituvchilarning shani, qadr qimmat, huquqiy asosi yaratilayotganligi biz uchun juda ham mas'uliyatli. O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir. Shuning uchun ham barchamiz bu siyosiy jarayonda ishtirok etishimiz va fuqarolik burchimizni bajarishimiz kerak. Yurtdoshlarimizni referendumda faol bo'lishga chaqiramiz!

BARCHAMIZ REFERENDUMDA FAOL QATNASHAMIZ!

O'z maqsadingni bil!

— Institutdagi 4 yillik faoliyatim davomida bir qancha yutuqlarga erishib kelmoqdaman. Jumladan, 2021 yil noyabr oyida innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkazilgan bo'lajak olim tanlovining ilmiy g'oya yo'nalishi bo'yicha o'zimizning loyihamizni 95 mln so'mga moliyalashtirganmiz. Ushbu loyihamiz talabalarimiz uchun ingliz va o'zbek tillarida o'z bilimlarini yanada boyitishlari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari o'zimizning 3 mln so'mlik startap loyihamizda ham g'olib bo'ldik. Mazkur loyiha hozirda viloyat hokimligi tomonidan moliyalashtirish

bosqichida. Loyihamiz talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, tibbiyot sohasida 3D ko'z oynaklar yordamida ingliz, rus, lotin va o'zbek tillarida tibbiyotni o'rganishga mo'ljallangan.

Maqsadlarimdan biri, falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olishga qaratilgan. Hozirgi kunda ushbu darajani olish uchun o'zimning ilmiy ishlarimni olib bormoqdaman.

Inson maqsadlar yo'lida albatta harakatdan to'xtamasligi kerak.

Tursunoy QAXXOROVA,
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasini ingliz tili
o'qituvchisi.



"Hayotdagi maqsadim,
tanlagan yo'nalishimni
mardonovor yengib
o'tib, tanlagan kasbim-
ning halol mutaxassisi
bo'lish"

**Dilyorbek
SOTVOLDIEV,**
talaba.



"Maqsad – inson hayotiga mazmun
bag'ishlaydi. Bugun jamiyatda tutgan
o'rnimiz kechagi maqsadlarimizning
natijasidir! Aniq belgilangan maqsad
har bir inson uchun farovon kelajakni
ta'minlaydi."

**Ulug'bek
BOLTABOYEV,**
institut o'quv ishlar bo'yicha
prorektori.

SÓ'NGGI
YANGILIKLAR

HAMKORLIK ALOQALARI YANGI BOSQICHDA

Shu yilning mart oyi oxirida sog'liqni saqlash tizimida faoliyat olib borayotgan bir guruh delegatsiya Germaniyada bo'ldi. Delegatsiya tarkibidan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rektori Akmal Sidikov, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Abduqayum To'xtaqlulov, mutaxassislar Shahobiddin Qo'chqorov, Bobur Primqulov, Bekzod Ziyaev, Mirzoxid Nosirovlar joy olgan.

Tashrifdan ko'zlangan maqsad — Farg'ona viloyati hamda Mannheim universiteti shifoxonasi o'rtasida sifatli hamda yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatishda hamkorlik aloqalarini o'rnatish, ikki davlat shifokorlarining hamjihatligini mustahkamlashdan iborat bo'ldi.

Farg'onalik delegatsiya 1200 o'rinli, 6000 nafar xodimga ega, jahon andozalari darajasidagi yuqori texnologiyali operatsiyalar o'tkazadigan, barcha tibbiy yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan universitet shifoxonasi faoliyati bilan tanishdi. Neyroonkologiya bo'limida bosh miya metastatik o'smasini olib tashlash va mahalliy to'qimalarga nur terapiyasini qo'llash kabi jarrohlik amaliyotlarini kuzatdilar.

Tashrif davomida noyob suyak iligi transplantatsiyasi bo'limi, umumiy xirurgiya bo'limidagi jarrohlik amaliyotlarida qatnashdilar. Shuningdek, zamonaviy Da Vinci apparatida bajarilgan murakkab operatsiyalar jarayoniga guvoh bo'lishdi. Qolaversa, endilikda talabalar va ordinatolar mazkur klinikada amaliyot o'tash imkoniyatiga egadir.



O'zbekiston –Hindiston xalqaro sog'liqni saqlash forumi

Poytaxtimizdagi "Hilton" mehmonxonasida O'zbekiston –Hindiston xalqaro sog'liqni saqlash forumi bo'lib o'tdi.

Sog'liqni vazirligi tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu nufuzli anjumanda ikki mamlakatning sog'liqni saqlash sohasi mas'ullari, diplomatik korpus vakillari, Hindistonning yetakchi xususiy tibbiyot markazlari hamda yirik farmasevtik korxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

Hindistonlik hamkorlar bilan umumiy qiymati 300 million dollarga teng 100 dan ortiq memorandum va shartnomalar imzolangan nufuzli forum taassurotlarga boy bo'ldi.

Forum doirasida sohadagi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashdagi hissasi uchun qator Hindiston vakillariga "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni hamda vazirlik tashakkurnomasi topshirildi. Shuningdek, bir guruh hind ishtirokchilar O'zbekistonda tibbiy ta'lim, shifokorlar malakasini oshirish hamda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun mamlakatimiz tibbiyot oliy o'quv yurtlarining "Faxriy professori" unvonlari bilan taqdirlandi.

Xususan, institut rektori, professor, A.Sidikov tomonidan doktor, Sanjay Sehwat Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining "Faxriy professori" unvoni bilan taqdirlandi.



“SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA: FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTINING MALAKALI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.

Anor

Hurmatli o‘quvchi! Sizning yoningizda o‘sayotgan, yashayotgan Anor butasini bilasiz. Ushbu mevali butani dorivor xususiyatlarini? Uning mevasi va sharbati barcha bozorlarimizda sotiladi.

O‘zbekistonda asosan uch turi ekiladi – shirin, nordon, nordon-shirin.

Anor (Granat obiknovenniy), (Punica Granatum L.). Arablar uni “rummon”, forslar-anor, turklar-nor deb ataydilar.

Ko‘p yillik buta. Yoyilib o‘sad, uzunligi 5 m gacha yetadi. May-avgustda gullaydi, mevalari sentyabr-oktyabr oylarida pishadi.

Qadimdan anor butasi, po‘stlog‘i, meva po‘chog‘i, guli, urug‘i ham foydalaniladi.

Anor butasini turli qismlarida inson a‘zosiga foydali, ishtaha ochuvchi, ovqatni hazm qildiruvchi foydali organik

kislotalar va vitaminlar saqlaydi.

Ibn Sino anor po‘stlog‘idan keng foydalangan. Xususan, qon qusishda, qon ketishda, siydik haydashda, yaralarni davolashda buyurgan. Sayid Muhammad Hasrat gulidan qon ketishda to‘xtatuvchi sifatida foydalangan.

Amirdovlat Amasiatsi XV-asrning arman olimi, tabiatshunosi va shifokori quyidagicha tavsiyalar bergan: quloq yarasi, sariq kasalligida, ko‘z kasalligida, yaralarga, yurak, oshqozon, tomoq, gijjalarni haydashda yaxshi foyda beradi.

Hindiston tabiblari anor ildizidan dorilar tayyorlashgan.

Tabobat qomusi tavsiyalaridan.

Arteriya qon tomirlarini torayishida (arteroskleroz), har kuni anor sharbatidan ikki mahal iste‘mol qilish lozim.

Bachadondan qon ketishida, guli va po‘stlog‘idan qaynatma tayyorlanib, 5 kun 50 ml dan ichilsa yordam beradi.



Bepushtlikda, to‘rt dona anor po‘chog‘ini besh litr suvda qaynatib bug‘iga o‘tiriladi.

Buyrak tosh kasaligida mevasini yeb, qaynatmasi ichiladi.

Bit va sirkalarda bir stakan sharbatiga ikki osh qoshiq yalpiz qo‘shib, o‘n daqiqa qaynatiladi, keyin bosh terisiga ishqalab surtiladi.

Gijjalarni haydashda bir dona anor

po‘stini ustiga 0,75 stakan qaynoq suv quyiladi. Ovqatdan oldin 3 mahal ichiladi kechqurun surgu dori berish kerak.

Anor butasi bosh aylanishi, burun qonashi, venalarda varikoz kengayishi, gormonlar o‘zgarishida, jarohatlarda, jigar kasalliklarida, ich ketishda, ichkilikbozlikda, kamqonlikda, jinsiy zaiflikda va bir necha xastaliklarni davolashda ishlatib kelinmoqda.



Abujaxl tarvuzini bilasizmi?

Abujaxl tarvuzi dorivor yovvoyi o‘simlik bo‘lib, O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Asosan aholi yashaydigan yerlarda, ariq bo‘ylarida, o‘rmon chetlarida va butazorlarda o‘sadi. Uni mahalliy aholi oq va qora tarvuz, achchiq tarvuz va xanzal deb ham ataydilar.

Ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Chirmashib o‘sadi. Uzunligi 4 m

gacha yetadi. Apreldan boshlab gullaydi, mevalari iyul-sentyabrda yetiladi, zaharli!

Qadimdan ushbu o‘simlik tabobatda turli xil kasalliklarini davolashda ishlatib kelinadi. Uni Jolinus (Galen) me‘da xastaliklarida, Ibn Sino bosh aylanishida, yurak xastaliklarida, qora taloq kasalliklari, falajda, bo‘g‘im og‘riqlarida, peshob haydashda, surgu sifatida, ilon, chayon va boshqa jonzorlar chaqqanida va har xil shishlarni bartaraf etishda, tamoq og‘rig‘i, teridagi yara-chaqalarni davolashda foydalangan.

Tibbiyotda o‘simlik ildizi ishlatiladi.

Bahor yoki kuzda ildizi kavlab olinib, quritilmasdan ishlatiladi.

Nastoyka “Akofit” (“Radikulin”) preparati tarkibiga kiradi. Rodikulit, nevrit (nerv tomirlarini yallig‘lanishi), lyumbago (bel og‘rig‘i), pelekesit (nerv chegaralarini yallig‘lanishi) va ishias (quymich nervining yallig‘lanishi) kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Tabobat qomusi tavsiyalaridan.

Abujaxl tarvuzining muolajalaridan ayrimlarini keltiramiz. Tarvuzpalak falajda va tutqonoqda yordam beradi.

Qaynatmasi bilan soch yuvilsa, ular to‘kilmaydigan bo‘ladi.

Ildizini yoqib, kukunidan foydalansa, og‘iz va ko‘zdagi

achishishda va qovoqlar yallig‘lanishida shifo bo‘ladi.

Barglari ayollardagi sutni ko‘paytiradi.

Shirasi badan tersini tozalaydi va unga yaltiroqlik bag‘ishlaydi, shuningdek, bo‘jamalarni ketkazadi, milkni davolaydi.

Abujaxl suvi bronxial astmada 1 qoshiqdan 3 mahal, gijjalarga bir osh qoshiqdan och qoringa ovqatdan yarim soat oldin 10-14 kun, jigar serrozida ikki osh qoshiqdan och qoringa ovqatdan oldin 20 kun davomida ichiladi. Soch to‘kilishida bosh yuviladi. Zaytun yog‘i bilan qaynatib, buringa tomizilsa miyadagi tiqilma ochilib ketadi.

Ildiz qaynatmasi ichilsa bachadondan qon ketishi to‘xtaydi.

Quloq shang‘illashi va qurtida Abujaxl suvi teng miqdorda kunjut yog‘i aralashmasi suv parlanib ketguncha qaynatiladi so‘ng ishlatiladi.

M. XOLIQOV,
xalq tabobati va farmakologiya kafedrasini
o‘qituvchisi.



E'tirof

Yuksak mas'uliyat egalari

Hukumat qaroriga binoan 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab, talabalar bilan ishlash bo'yicha "Guruh murabbiyi" instituti bekor qilinib, uning o'rniga talabalar bilan ishlaydigan "Tyutorlar" amaliyoti yo'lga qo'yilgan edi. Institutimizda ham ular ustoz, murabbiy, instruktor kabi talabalarga o'quv jarayoni davomida o'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish, hayotda to'g'ri qaror qabul qilish va tanlashni o'rgatmoqda, hayotda o'z qiziqishlarini topishga yordam bermoqda.

Jumladan, davolash ishi fakulteti farmatsiya hamda stomatologiya yo'nalishi talabalaridan tashkil etilgan volontyorlar guruhi D.Xabibullaev, A.Teshabaev va A.Yusupov boshchiligidagi Farg'ona shahridagi 41-va 11- davlat umumta'lim maktablarida bo'ldilar. U yerda talabalarimiz o'quvchilar bilan uchrashib, "Inson tishlari parvarishi" mavzusida suhbatlashdilar ularning tibbiyotga oid bo'lgan turli savollariga javob berdilar. Uchrashuv davomida bolajonlar tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi.

Shuningdek, tyutor H. Azizov boshchiligidagi davolash ishi fakulteti talabalari ham 11-maktabda uchrashuv tashkillandi. Ko'ngilli yoshlarimiz maktab o'quvchilari bilan yaqindan tanishib, sog'lom hayotga amal qilish va to'g'ri ovqatlanish qoidalari haqida suhbatlashdilar. Ovqatlanish tartibiga amal qilishlari va doimo ozoda bo'lishlarini tayinladilar.



Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekan o'rinbosari va tyutorlari tomonidan talabalar turar joyida «Besh muhim tashabbus» ning beshinchi yo'nalishi bo'yicha qizlarni darsdan bo'sh vaqtlarini unumli va foydali mashg'ulot bilan band qilish maqsadida «Mohir qo'llar» to'garagi

tashkil etilgan. Fakultet dekan o'rinbosari va tyutorlari tomonidan «Mahalla obodligi - yurt obodligi» mavzusida tadbir o'tkazildi. Unda Farg'ona shahridagi Bo'ston mahallasi raisi Abduxalil Irgashev boshchiligidagi mahalla oqsoqollari, faollari va 100 nafar talabalar ishtirokida

davra suhbat tashkillandi. Qolaversa mazkur fakultet tyutorlari va talabalar bilan «Jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish» mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda institut inspektori D.Oltinboev jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida gapirdi. Jarayon davom etadi.

Xalqimizda azal-azaldan keksalarga hurmat, e'tibor ko'rsatish, ularni e'zozlash, boy hayotiy tajribalarini o'rganish, maslahat va nasihatlariga quloq tutish yuksak qadriyat sanalgan. Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekan o'rinbosari O.Tuychibaeva, tyutorlar M.Tojiboeva, D. Ashurova va talabalar bilan birgalikda Farg'ona

shahar, Binafsha ko'chasi 28-xonadonda istiqomat qiluvchi, nuroniy Rahmatjon ota Xojiqurbonov va Turon ko'chasi 123-xonadonda istiqomat qilib kelayotgan Saodatxon Normirzaevlarning holidan habar olindi. Ular e'tibordan mamnun bo'lishib, duoga qo'l ochib, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini tilab duo qildilar.



«Besh muhim tashabbus»: Ijodiy uchrashuv

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekan o'rinbosari va tyutorlari tomonidan «Besh muhim tashabbus» ning birinchi bosqichi doirasida talabalarni bo'sh vaqtlarini unumli va foydali o'tkazish, shuningdek, yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tashkillangan ma'daniy tadbirda Farg'ona Davlat Universiteti san'at yo'nalishi bitiruvchilari ishtirokida ijodiy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Tadbirda yoshlarni qiziqitirgan savollarga javob bergan mehmonlar obraz, musiqalarni maromiga yetkazishda muhim jihatlarga to'g'risida to'xtalib o'tishdi.

Ko'taringki ruhda o'tgan uchrashuv so'nggida yoshlarga o'zbek durдона asarlari taqdim etildi.

JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOROV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar, Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru

fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 14.04.2023 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500